

O'zbekiston Respublikasida demografik holat

2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni **38 236,7** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,8** foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni **879,6** ming nafarni, vafot etganlar **177,1** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **702,5** ming kishiga teng bo'ldi. Mamlakatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **1 159** kishini va mamlakatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **10 117** kishini, qayd etilgan nikohlar **267,1** mingtani, nikohdan ajralishlar **46,9** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni

38 236,7 *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

879,6 *ming kishi*

Vafot etganlar soni

177,1 *ming kishi*

Xorijdan ko'chib kelganlar

1 159 *kishi*

Xorijga ko'chib ketganlar

10 117 *kishi*

Nikohlar soni

267,1 *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

46,9 *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni


O'zbekiston Respublikasida doimiy aholi soni 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, **38 236,7** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **693,5** ming kishiga yoki **1,8** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **19 471,7** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **50,9%**), qishloq joylarda esa **18 765,0** ming kishi (**49,1%**) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **18 979,0** ming kishini (**49,6%**), erkaklar esa **19 257,7** ming kishini (**50,4%**) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	37 543,2	38 236,7	101,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 029,7	2 053,2	101,2
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	3 461,0	3 521,8	101,8
Buxoro	2 077,0	2 107,0	101,4
Jizzax	1 537,6	1 566,9	101,9
Qashqadaryo	3 639,3	3 717,0	102,1
Navoiy	1 094,7	1 111,9	101,6
Namangan	3 131,7	3 190,8	101,9
Samarqand	4 297,5	4 379,8	101,9
Surxondaryo	2 945,5	3 011,0	102,2
Sirdaryo	930,8	946,3	101,7
Toshkent	3 108,5	3 160,7	101,7
Farg'ona	4 144,7	4 223,0	101,9
Xorazm	2 032,4	2 069,2	101,8
Toshkent sh.	3 112,8	3 178,1	102,1

O'zbekiston Respublikasida 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **85,2** kishi to'g'ri kelgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **1,6** kishiga ortgan (2025-yil 1-yanvar holatiga 1 kv.km ga **83,6** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km ga to'g'ri keladigan aholi soni



Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Doimiy aholi soni \(jami, choraklik\)](#)

[Doimiy aholi soni \(ayol, choraklik\)](#)

[Doimiy aholi soni \(erkak, choraklik\)](#)

[Doimiy aholi soni \(shahar, choraklik\)](#)

[Doimiy aholi soni \(qishloq, choraklik\)](#)


[Aholi zichligi \(jami, choraklik\)](#)

III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Mamlakatimizda 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **879,6** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **23,2** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **46,8** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **177,1** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **2,7** ming nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Respublikada tirik tug'ilganlar soni **879,6** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **454,7** ming (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,7%**), qiz bolalar soni **424,9** ming (**48,3%**) va shahar joylarida **419,5** ming (**47,7%**), qishloq joylarida **460,1** ming kishini (**52,3%**) tashkil etdi.

Respublikada vafot etganlar soni **177,1** ming kishini, shundan erkaklar **97,5** ming (jami vafot etganlar soniga nisbatan **55,1%**), ayollar **79,6** ming (**44,9%**) va shahar joylarida **95,7** ming (**54,1%**), qishloq joylarida **81,4** ming kishini (**45,9%**) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslari bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi



Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Tug'ilganlar soni \(jami, choraklik\)](#)

[Tug'ilganlar soni \(qiz bolalar, choraklik\)](#)

[Tug'ilganlar soni \(o'g'il bolalar, choraklik\)](#)

[Vafot etganlar soni \(jami, choraklik\)](#)


[Vafot etganlarning asosiy o'lim sabablari \(jami, choraklik\)](#)

IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Mamlakatimizda 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **267,1** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,1** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **4,7** ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **46,9** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **1,8** ming birlikka ko'paygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Respublikada qayd etilgan nikohlar soni **267,1** ming birlikni, shundan shahar joylarida **132,6** ming birlikni (**49,7%**), qishloq joylarida **134,5** ming birlikni (**50,3%**) tashkil etdi.

Respublikada nikohdan ajralishlar soni **46,9** ming birlikni, shundan shahar joylarida **28,2** ming birlikni (**60,1%**), qishloq joylarida **18,7** ming birlikni (**39,9%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Tuzilgan nikohlar soni \(jami, choraklik\)](#)

[Tuzilgan nikohlar soni \(shahar, choraklik\)](#)

[Tuzilgan nikohlar soni \(qishloq, choraklik\)](#)

[Nikohdan ajralishlar soni \(jami, choraklik\)](#)

[Nikohdan ajralishlar soni \(shahar, choraklik\)](#)

[Nikohdan ajralishlar soni \(qishloq, choraklik\)](#)

V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-dekabr oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlarning jami soni **252 792** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **251 633** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **1 159** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlarning jami soni **261 750** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **251 633** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **10 117** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
O'zbekiston Respublikasi	252 792	251 633	1 159	261 750	251 633	10 117
Qoraqalpog'iston Respublikasi	13 200	13 099	101	18 622	15 090	3 532
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	7 897	7 897	0	9 782	9 724	58
Buxoro	9 916	9 905	11	14 166	14 032	134
Jizzax	8 172	8 160	12	9 933	9 833	100
Qashqadaryo	11 973	11 971	2	18 361	18 347	14
Navoiy	14 284	14 272	12	16 437	14 527	1 910
Namangan	2 910	2 909	1	5 126	5 096	30
Samarqand	13 708	13 706	2	17 975	17 866	109
Surxondaryo	10 832	10 832	0	14 383	14 358	25
Sirdaryo	6 970	6 946	24	7 934	7 822	112
Toshkent	31 176	30 901	275	26 295	23 813	2 482
Farg'ona	15 336	15 322	14	16 569	16 489	80
Xorazm	16 132	16 125	7	15 885	15 789	96
Toshkent sh.	90 286	89 588	698	70 282	68 847	1 435

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'chib kelganlar soni \(jami, choraklik\)](#)

[Ko'chib ketganlar soni \(jami, choraklik\)](#)

VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi yo'lga qo'yilgan va ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Foydali havolalar

[Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirishda fuqarolik holati dalolatnomalari va statistik hisob talonlari ma'lumotnomalarini kodlashtirish bo'yicha qo'llanma](#)
[Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
Elektron pochta: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1240,1241)

Manzil:

